



# SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI




*(2021- yil yanvar-aprel oyi  
uchun dastlabki ma'lumot)*



Sirdaryo iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi diversifikatsiyalangan va raqobatbardosh iqtisodiyotni yaratishga, innovatsion texnologiyalar va bozorni boshqarishning yangi usullaridan foydalangan holda milliy resurslardan maksimal darajada foydalanishga yo'naltirilgan. Viloyatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan, tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2021- yilning yanvar-aprel oyi yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **232,7** mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan **71,1** mln. AQSh dollariga yoki **44,0** % ga ko'paydi.



### TASHQI SAVDO AYLANMASI VA BALANSI (yanvar-aprel, ming. AQSh dollari)

	2020 yil	2021 yil	O'sish surati, % da	jamiya nisbatan, % da
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	161 598,8	232 741,6	144,0 %	x
<b>Eksport</b> 	38 262,9	73 698,8	192,6 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	37 811,6	73 282,9	193,8	99,4
 <i>xizmatlar</i>	451,3	415,9	92,2	0,6
<b>Import</b> 	123 335,9	159 042,8	129,0 %	100,0
 <i>tovarlar</i>	123 333,3	159 042,8	129,0%	100,0
 <i>xizmatlar</i>	2,6	0,0	0,0	0,0
<b>Saldo</b> 	-85 073,0	-85 344,0	x	x




Ma'lumot uchun: Sirdaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

TSAda eksport hajmi **73,7** mln. AQSh dollariga (**92,6** % ga ko'paydi) va import hajmi **159,0** mln. AQSh dollariga (**29,0** ga ko'paydi) yetdi. Hisobot davrida - **85,3** mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

## SIRDARYO VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO'LGAN DAVLATLAR

(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da.)





## SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI



Sirdaryo viloyati tashqi savdo aylanmasi yanvar-aprel oyida **232,7** mln. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **44,0** mln. AQSh dollariga ko'paydi.

Iqtisodiyotning real sektori tarmoqlari va korxonalarining barqaror va uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun viloyatda zarur resurslar bazasi yaratilgan. Eksport tarkibida sezilarli o'zgarishlarga import tovarlarning o'rnini bosadigan mahsulotlar ishlab chiqarish va sanoat ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish natijasida erishildi.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi, va Qozog'iston, bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda. Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSAda eng yuqori ulush Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya va Avstriya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



## 10 TA YIRIK HAMKOR-DAVLATLAR ICHIDA TO'RTTA FAOL TASHQI SAVDO BALANSI KUZATILGAN DAVLATLAR (2021- yil yanvar-aprel)






Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 10 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan to'rtta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (67,0 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (51,7 mln. AQSh dollari), Xitoy Xalq Respublikasi (41,8 mln. AQSh dollari), va Afg'oniston (21,6 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 6 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

Sirdaryo, jahonning 40 ga yaqin mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAda salmoqli hissasi Rossiya Federatsiyasi (28,8 %), Qozog'iston (22,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (17,9 %), Afg'oniston (9,3 %), Avstriya (4,7 %), Qirg'iz Respublikasida (0,8 %) va Turkiya (3,1 %) qayd etilgan.

## SIRDARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
 Rossiya Federatsiyasi	37,3	40,4	67,0
<i>Eksport</i>	5,4	7,1	14,4
<i>Import</i>	31,9	33,3	52,6
 Qozog'iston	51,8	42,8	51,7
<i>Eksport</i>	14,0	4,5	4,6
<i>Import</i>	37,8	38,3	47,1
 Xitoy Xalq Respublikasi	54,4	27,3	41,8
<i>Eksport</i>	11,2	5,0	14,4
<i>Import</i>	43,2	22,3	27,4



# SIRDARO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSh dollari)



Davlatlar	2019- y.	2020- y.	2021- y.
<b>Afg'oniston</b>	<b>0,7</b>	<b>12,0</b>	<b>21,6</b>
<i>Eksport</i>	0,7	12,0	21,6
<i>Import</i>	-	-	-



<b>Pokiston</b>	<b>0,2</b>	<b>0,7</b>	<b>3,7</b>
<i>Eksport</i>	0,2	0,7	3,7
<i>Import</i>	-	-	-



<b>Litvaya</b>	<b>3,0</b>	<b>0,7</b>	<b>0,1</b>
<i>Eksport</i>	1,8	-	-
<i>Import</i>	1,2	0,7	0,1



<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>0,7</b>	<b>1,7</b>	<b>1,9</b>
<i>Eksport</i>	0,2	0,3	1,7
<i>Import</i>	0,5	1,4	0,2



<b>Turkiya</b>	<b>4,3</b>	<b>5,3</b>	<b>7,1</b>
<i>Eksport</i>	1,0	0,5	3,4
<i>Import</i>	3,3	4,8	3,7



<b>Ispaniya</b>	-	-	<b>0,8</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	-	-	0,8



<b>Germaniya</b>	<b>1,2</b>	<b>5,7</b>	<b>6,2</b>
<i>Eksport</i>	-	-	-
<i>Import</i>	1,2	5,7	6,2



<b>Tojikiston</b>	<b>0,7</b>	<b>3,5</b>	<b>0,8</b>
<i>Eksport</i>	0,4	1,1	0,6
<i>Import</i>	0,3	2,4	0,2






## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel 2021- yil)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>232 741,6</b>	<b>144,0</b>
Boyovut	9 422,4	89,9
Guliston	6 082,3	6,5 m.
Mirzaobod	9 838,8	82,2
Oqoltin	1 270,5	2,9 m.
Sardoba	3 582,1	3,6 m.
Sayxunobod	16 307,2	181,7
Sirdaryo	59 310,5	98,6
Xovos	9 375,1	116,5
Guliston sh.	27 237,5	142,8
Shirin sh.	45 393,7	2,2 m.
Yangiyer sh.	44 546,0	2,7 m.

**Eng yuqori hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Sirdaryo - 59 310,5**

**Shirin sh. - 45 393,7**

**Yangiyer sh. - 44 546,0**

**Eng quyi hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Guliston – 6 082,3**

**Sardoba – 3 582,1**

**Oqoltin – 1 270,5**

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Sirdaryo tumani **25,5 %** ulush bilan **59 310,5** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng quyi ulushni Oqoltin tumani **0,5 %** ulush bilan **1 270,5** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yilning yanvar-aprel oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **54,1 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi 2020- yilga nisbatan ulushi **3,9 %** ga kamaygan.

### SIRDARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)




Boshqa xorijiy davlatlarning TSAsi 2021- yilning yanvar-aprel oyida 2020- yilga ulishiga nisbatan **3,9 %** ga ko'payib va jami TSAdagi ulushi **45,9 %** ni tashkil etdi.





## SIRDARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2021- yil yanvar-aprel, ming. AQSh dollari)




1992- yil 4- yanvarda O‘zbekiston Respublikasi MDH (Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi) ga a‘zo bo‘ldi. Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2021- yil yanvar-aprel holatiga **125 909,2** ming. AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport - **22 054,7** ming. AQSh dollariga yetgan bolsa, import – **103 854,5** ming. AQSh dollari qiymatida qayd etildi.

Sirdaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya Federatsiyasi (**52,6 %**), Qozog‘iston (**40,6 %**), Qirg‘iz Respublikasi (**1,5 %**), Turkmaniston (**2,5 %**) va Tojikiston (**0,6 %**) davlatlari bilan qayd etildi.




# SIRDARYO VILOYATINING YEVROOSIYO IQTISODIY ITTIFOQIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI


(yanvar-aprel, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)




Jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi



Jami eksportdagi ulushi



Jami importdagi ulushi



2020- yil 11- dekabrda O'zbekiston Respublikasi Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida kuzatuvchi maqomini oldi. YOII bilan Sirdaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasi **120 842,8** ming AQSh dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **20 609,8** ming AQSh dollari, import hajmi esa **100 233,0** ming AQSh dollariga yetdi.





## SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI


(2021- yil yanvar-aprel)



Joriy yilning yanvar-aprel oyida viloyatning eksportyorlari soni **118** tani tashkil etib, ular tomonidan **73 698,8** ming. AQSh dollari qiymatidagi (2020-yilning mos davriga nisbatan **92,6** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

### XSST BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2021- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Eksport tarkibida tovarlar ulushi **100,0** % ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**17,8** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**49,7** %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**1,3** %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



## SIRDARYO VILOYATI XSST BOYICHA EKSPORT TARKIBI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis-batan. % da	
	2020-y	2021-y	2020-y	2021-y	2020-y	2021-y
<b>Jami eksport</b>	<b>38 058,7</b>	<b>73 533,0</b>	<b>90,5</b>	<b>193,2</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	16 641,2	36 514,1	113,3	2,1 m.	43,7	49,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8 320,9	6 317,5	101,9	75,9	21,9	8,6
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	90,0	0,0	71,5	0,0	0,2	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	1 803,0	952,8	146,6	52,8	4,7	1,3
Sanoat tovarlari	5 884,7	13 071,5	59,3	2,2 m.	15,5	17,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	483,4	1 322,8	71,1	2,7 m.	1,3	1,8
Turli xil tayyor buyumlar	3 091,3	7 378,3	73,7	2,3 m.	8,1	10,0
Xizmatlar	1 744,2	7 976,0	57,5	4,5 m.	4,6	10,8





## SIRDARYO VILOYATI EKSPORTI



Sirdaryo viloyati eksporti yanvar-aprel oyida **73 698,8** ming. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilning shu oyiga nisbatan **35 442,8** ming. AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Sabzavotlar va mevalar	9 099,8	174,7
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	26 450,5	2,4 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	907,3	2,4 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	26,0	2,7 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Ichimliklar	0,0	0,0
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	5 556,5	69,6
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	12,8	6,4
Metall rudalari va metall parchalari	0,0	0,0
Qog'oz massasi va makulatura	46,2	17,6
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
Elektr toki	0,0	0,0
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR EKSPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020- yilga nisbatan, % da
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	0,0	0,0
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Noorganik kimyo moddalari	0,0	0,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,0	-
O'g'itlar	-	-
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	93,2	92,7
<b>Sanoat tovarlari</b>		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	6 013,6	2,2 m.
Rangli metallar	0,0	-
Cho'yan va po'lat	0,0	0,0
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	0,0	0,0
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	0,0	0,0
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	1 187,2	2,7 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	6 936,7	2,3 m.
Har xil tayyor buyumlar	441,6	7,1 m.
Poyabzal	0,0	0,0
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlar	0,0	0,0







## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi kamaydi va ularning jami eksportdagi ulushi 2020- yilning yanvar-aprelidagi **36,9** % dan 2021- yilning yanvar-aprelida **29,9** % ga kamaydi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi **70,1** % ni tashkil etdi.



**VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-aprel, % da)**

2021- yilning yanvar-aprel oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Afg'oniston (eksport umumiy hajmining **38,5** %), Rossiya Federatsiyasi (**19,5** %), Xitoy Xalq Respublikasi (**19,5** %), Pokiston (**5,0** %), Qozog'iston (**6,2** %), Turkiya (**4,7** %) va Qirg'iz Respublikasi (**2,3** %), boshqa davlatlarning eksportdagi ulushi **50,0** foizni tashkil etmoqda.



**SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORT HAJMI  
VA O‘SISH SUR‘ATLARI** *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*




Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O‘shish sur‘ati, % da		O‘rni	
	2020-y	2021-y	2020-y	2021-y	2020-y	2021-y
Afg‘oniston	11 953,7	28 375,6	15,4 m.	2,3 m.	1	1
Rossiya Federatsiyasi	7 117,6	14 373,2	130,9	2,0 m.	2	2
Xitoy Xalq Respublikasi	5 027,7	14 354,0	45,1	2,8 m.	3	3
Qozog‘iston	4 528,3	4 575,2	32,3	101,0	4	4
Turkiya	508,6	3 443,8	53,4	6,7 m.	6	6
Pokiston	668,7	3 686,3	3,7 m.	5,5 m.	5	5
Qirg‘iz Respublikasi	294,6	1 661,4	128,5	5,6 m.	7	7





## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2021- yil yanvar-aprel)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>73 698,8</b>	<b>192,6</b>
Boyovut	6 199,2	84,3
Guliston	5 256,4	31,5 m.
Mirzaobod	4 943,8	147,5
Oqoltin	760,4	3,7 m.
Sardoba	1 265,3	185,9
Sayxunobod	6 869,5	2,0 m.
Sirdaryo	15 622,0	171,8
Xovos	5 380,5	2,3 m.
Guliston sh.	8 678,8	2,4 m.
Shirin sh.	22,3	2,2
Yangiyer sh.	18 489,5	2,5 m.

**Eng yuqori hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Yangiyer sh. - 18 489,5**

**Sirdaryo - 15 622,0**

**Guliston sh. – 8 678,8**

**Eng quyi hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Sardoba – 1 265,3**

**Oqoltin – 760,4**

**Shirin sh. - 22,3**

Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Yangiyer shahri **25,1 %** ulush bilan **18 489,5** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda eksporti tarkibida eng quyi ulushni Shirin shahri **0,03 %** ulush bilan **22,3** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Sirdaryodagi meva-sabzavot sektori mamlakat va hududlarning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim segment hisoblanadi. Shuning uchun, bu sohada meva va sabzavot mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirish uchun barcha choralar ko'rilmoqda, bu esa o'z natijalarini bermoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **9 099,8** ming. AQSh dollari qiymatli **17 744,1** tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2020- yilning mos davriga nisbatan **3 892,0** ming. AQSh dollarida oshganni kuzatilib, **74,7** % ga ko'paydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, **8 203,7** ming. AQSh dollariga teng **16 934,8** tonna sabzavot, shuningdek, **896,1** ming. AQSh dollari qiymatidagi **809,3** tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2021- yil yanvar-aprel)



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Afg'oniston hamda Pokiston davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois, eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi **24,9** % ni tashkil etdi.

### MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT

GEOGRAFIYASI (2021- yil yanvar-aprel)

Davlatlar	tonna	ming. AQSh dollari	ulushi, % da *
Afg'oniston	1 688,6	1 399,6	15,4
Pokiston	2 005,0	3 219,1	98,9
Rossiya Federatsiyasi	2 686,7	1 649,8	100,0
Qozog'iston	9 749,1	1645,1	99,4
Xitoy Xalq Respublikasi	395,0	428,7	71,7
Qirg'iz Respublikasi	153,0	186,4	86,1

\* qiymat ifodasidan

Meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keladi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **4,8** m.% ga ko'paydi.)



## SIRDARYO VILOYATINING IMPORTI

(2021- yil yanvar-aprel)




2021- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi **159 042,8** ming. AQSh dollarini va 2020- yilga nisbatan **129,0** % ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (**18,4** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**20,0** %) hamda kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (**13,6** %) hisobiga to'g'ri keldi.

### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2020- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2021- yilning yanvar-aprel import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **35 706,9** ming. AQSh dollariga ko'paydi va **159 042,8** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.





## SIRDARYO VILOYATI XSST BOYICHA IMPORT TARKIBI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*



XSST tarkibi	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2020-y	2021-y	2020-y	2021-y	2020-y	2021-y
<b>Jami import</b>	<b>123 333,2</b>	<b>159 042,8</b>	<b>83,0</b>	<b>129,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	24 216,4	40 529,9	74,3	167,4	19,6	25,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	5 897,6	4 693,0	86,5	79,6	4,8	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	3 656,3	39 334,6	4,5 m.	10,7 m.	3,0	24,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	226,0	211,7	102,3	93,6	0,2	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	31 089,3	16 431,1	95,2	52,8	25,2	10,3
Sanoat tovarlari	8 274,7	9 013,6	98,9	108,9	6,7	5,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	46 623,6	44 904,0	135,2	96,3	37,8	28,2
Turli xil tayyor buyumlar	3 349,3	3 924,9	2,2 m.	117,2	2,7	2,5
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0



## SIRDARYO VILOYATI IMPORTI



Sirdaryo viloyati importi yanvar-aprel oyida **159 042,8** ming. AQSh dollari qiymatida qayd etilib, o'tgan yilga nisbatan **35 706,9** ming. AQSh dollariga ko'paydi.

### XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)



XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>		
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	35 443,7	171,5
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	112,8	2,0 m.
Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	693,2	7,1 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	209,8	5,0 m.
<b>Ichimliklar va tamaki</b>		
Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
Ichimliklar	0,0	0,0
<b>Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari</b>		
Probka va yog'och-taxtalar	1415,1	93,6
Metall rudalari va metall parchalari	463,0	30,9
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	0	0
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	74,0	6,0 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	36 323,8	27,1 m.
Ko'mir, koks va briketlar	3 010,8	129,8
Elektr toki	0,0	0,0
Tabiiy yoki sun'iy gaz	0,0	0,0
<b>Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar</b>		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	211,3	98,9
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar; boshqa joyda tasniflanmagan hayvonlar va o'simlik yog'lari va moylaridan olingan texnik aralashmalar va preparatlar	0,0	0,0



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2021- yil yanvar-aprel)





XSST bo'limi nomi	Ming. AQSh dollari	2020-yilga nisbatan, % da
<b>Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar</b>		
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	596,9	100,9
Birlamchi shakldagi plastmassalar	2 717,8	12,7
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	5 092,9	5,2 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari	539,9	105,8
<b>Sanoat tovarlari</b>		
Cho'yan va po'lat	857,2	35,2
Metaldan tayyorlangan buyumlar	1440,4	141,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1 020,2	2,3 m.
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	734,8	2,5 m.
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>		
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	26 245,3	123,7
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	5 975,6	111,8
Avtomobillarning ehtiyot qismlari	1 962,8	169,4
Avtomobillar, asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan avtoulavlar (10 va undan ortiq kishini tashishga mo'ljallangan transport vositalaridan tashqari)	0,0	0,0
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>		
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	841,6	122,4
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	2 436,3	108,9
Har xil tayyor buyumlar	358,1	2,7 m.



# MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-aprel, ming. AQSh dollari, ulushi, % da)



2021- yilning yanvar-aprel oyi yakuni bo'yicha Sirdaryo viloyati tomonidan 40 davlatdan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Germaniya, Qozog'iston, Turkiya, Avstriya va Turkmaniston) jami importning 94,8 % ulushini tashkil qildi, bu 150 896,2 ming. AQSh dollarini tashkil etdi.



## VILOYATNING IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2021- yil yanvar-aprel, % da)



## SIRDARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN IMPORT HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)




Davlatlar	Ming. AQSh dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2020-y	2021-y	2020-y	2021-y	2020-y	2021-y
Rossiya Federatsiyasi	33 254,6	52 600,9	104,4	158,2	2	1
Qozog'iston	38 348,9	47 148,4	101,3	122,9	1	2
Xitoy Xalq Respublikasi	22 298,9	27 411,0	51,9	122,9	3	3
Avstriya	6 855,1	10 862,1	197,2	158,4	5	4
Turkiya	4 816,8	3 663,4	149,7	76,0	7	6
Germaniya	5 722,5	6 152,1	4,6 m.	107,5	6	5
Turkmaniston	12 005,6	3 058,3	179,4	25,4	4	7

## SIRDARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2020- yil yanvar-aprel)



	Ming. AQSh dollari	O'sish sur'ati, % da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>159 042,8</b>	<b>129,0</b>
Boyovut	3 223,2	103,3
Guliston	825,9	91,9
Mirzaobod	4 895,0	56,8
Oqoltin	510,1	2,2 m.
Sardoba	2 316,8	7,9 m.
Sayxunobod	9 437,7	169,4
Sirdaryo	43 688,5	85,5
Xovos	3 994,6	69,3
Guliston sh.	18 558,7	119,0
Shirin sh.	45 371,4	2,3 m.
Yangier sh.	26 056,5	2,0 m.

**Eng yuqori hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Shirin sh. - 45 371,4**

**Sirdaryo - 43 688,5**

**Yangier sh.- 26 056,5**

**Eng quyi hajm,**  
ming. AQSh dollari

**Sardoba – 2 316,8**

**Guliston - 825,9**

**Oqoltin - 510,1**

Viloyatda importi tarkibida eng yuqori ulushni Shirin shahri **28,5 %** ulush bilan **45 371,4** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.

Viloyatda importi tarkibida eng quyi ulushni Oqoltin tumani **0,3 %** ulush bilan **510,1** ming. AQSh dollarini tashkil etdi.






## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



2021- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida mashinalar va transport-asbob uskunalari hajmi **78 835,2** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **69,0** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **49,6** % ga yetdi.

Import tarkibida asosiy ulushni tashkil qilayotgan mashinalar va transport asbob-uskunalari asosan qaysi davlatlardan viloyatimizga olib kirilayotganini quyidagi ma'lumotdan ko'rish mumkin.

### MASHINA VA ASBOB-USKUNALAR IMPORT QILINGAN ASOSIY HANKOR DAVLATLAR (2021-yil yanvar-aprel)



Mashina va transport uskunalari importi hajmining ko'payishiga sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari (**111,8** ), shuningdek, elektr mashinalari, apparatlar va asboblari, boshqa joyda tasniflanmagan (**2,2** m.) importi ko'payishi bevosita ta'sir qilgan.

## SANOAT TOVARLARI IMPORTI



2021- yil yanvar-aprel oyida import tarkibida sanoat tovarlari hajmi **9 013,6** ming AQSh dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **8,9** foizga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **5,3** % ga yetdi.

### SANOAT MAHULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2021- yil yanvar-aprel)



#### Rossiya Federatsiyasi

5 791,5 ming. AQSh dollari  
ulushi – 64,3 %



#### Xitoy Xalq Respublikasi

1337,9 ming. AQSh dollari  
ulushi – 14,8 %



#### Qozog'iston

589,9 ming. AQSh dollari  
ulushi – 6,5 %



#### Latviya

404,9 ming. AQSh dollari  
ulushi – 4,5 %



Sanoat tovarlari importi asosan cho'yan yoki legirlanmagan po'lat (**857,2** ming. AQSh dollari), rezina pokrishkalari, protektorlar, (**208,6** ming. AQSh dollari), va bir qatlamli fanera, yopishtirilgan fanera, paraxali plita va qayta ishlangan boshqa yog'ochlar (**4 577,2** ming AQSh dollari) va boshqalardan tashkil topgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.: (67) 236 86 34

